

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Ostonova Jasmina Diyorjon qizi

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kun islohotlarining eng yuqori bosqichlarida ko'rib chiqilayotgan mahalla tizimi, u bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va qabul qilinga normative hujjatlar, mahallada profilaktika inspektorining roli va vazifalari, u tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *mahalla, mahalla raisi, profilaktika inspektori, islohotlar, turmush tarsi, jamoat xavfsizligi, Uchinchi renessans.*

Abstract. *In the article, you can learn about the neighborhood system, which is being considered at the highest stages of today's reforms, the reforms being carried out and the adopted normative documents, the role and tasks of the prevention inspector in the neighborhood, and the measures implemented by him.*

Key words: *neighborhood, neighborhood chairman, prevention inspector, reforms, lifestyle , public safety, Third Renaissance.*

Mahalla tom ma'noda qadriyatlar va islohotlarning eng ildiz otgan maskani desak xato bo'lmaydi.

Mahalla raisi – Prezidentining quyi bo'g'indagi ustuni. Mahallaning iqtisodiyotini o'zgartisak, jamiyatimiz o'zgaradi. Buning uchun yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, “Har bir oila-tadbirkor” dasturidan samarali foydalanish kerak,-dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida ham mahalla o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Sababi mahalla va uning faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida to'xtalib o'tilgani buning yaqqol misolidir.

Aholi turmush darajasida mahallalardagi shart-sharoit, infratuzilma va xizmatlar sifati muhim omil. Islohotlarning natijalari, sohalaridagi kamchilik va

o'zgarishlar ham avvalo mahallada seziladi. Shu sababdan ham, Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida barcha darajadagi rahbarlar pastga nazar solib, kursidan tushib, o'z sohasi va faoliyati bo'yicha ishni mahallalarda tashkil etishi, muammolarni o'rganib, ularga yechim topishi zarurligini ta'kidlagan edilar. Shu bilan birga, mahalla idorasining vakolatini kengaytirish, rais va xodimlarning moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha fikr va tashabbuslar ilgari surildi.

Mahalla bugungi Uchinchi Renessansning katta e'tibor qaratilgan jabhalaridan biri. Mahalladagi ijtimoiy va siyosiy holatni barqarorlashtirish maqsadida "mahalla beshligi" yanada to'ldirilib 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilinib, "mahalla yetiligi" tashkil qilindi. Bu ham mahallaani siyosatimizning eng ko'zga ko'rinadigan quyi bo'g'ini darajasiga ko'tarishning bir shaklidir.

Mahalladagi barqarorlikni ta'minlashda mahalla boshqaruv tizimining o'rni muhim va ahamiyatlidir.

Mahalladagi jamoat xavfsizligini va huquqiy farovonlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqlari buzilgan fuqarolarga yordam berish masalalari bilan profilaktika inspektori shug'ullanadi. 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonida ham profilaktika inspektorining vazifalari belgilab berilgan bo'lib, u mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashishdir.

2017-yil 14-martda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra profilaktika inspektorlari mahallalarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tashkil qilishi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik

jamiyatining boshqa institutlari bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish; "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida turli toifadagi va yoshdagi shaxslar bilan profilaktik tadbirlar olib borishi; qonuniylikni va huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha dolzarb va muhim masalalar yuzasidan seminarlar, "davra suhbatlari", konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni tashkil qilishi va o'tkazishikabi vazifalar belgilab berildi.

Profilaktika inspektori mahallasidagi kriminogen vaziyatni doimo nazorat qilib boradi. Jinoyat sodir etmaslik haqida turli muassasalarida ochiq muloqot shaklida davra suhbatlari tashkil qiladi, ro'yxatga olingan yoshlar va fuqarolarni o'rganadi va nazorat ostigga oladi. Mahalladagi jazoni ijro etish muassasalaridan ozodlikka chiqqan fuqarolar bilan yakka va maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradiva buning tahlilini yuritadi.

"Mahalla yettiligi" dagi boshqa shaxslar bilan ham keng hamkorlikni amalga oshiradi. Xotin-qizlar masalalari, voyaga yetmaganlar, ijtimoiy himoyaga muhtojlar qatlami masalalari doirasida profilaktika inspektori ham muhokamalarda qatnashadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mahalla farovon, tinch bo'lsa jamiyat tinch va farovon bo'ladi. Mahalla Respublikamizning eng quyi bo'g'ini bo'lishiga qaramasdan, ijrochilik shu quyi bo'g'inda to'liq amalga oshirilsagina respublikaning boshqa joylarida ham ijrochilik masalalari doirasida muammo va kamchiliklar bo'lmaydi. Bu tinchlik va xavfsizlikni barqaror ushlab turishda ham Profilaktika inspektorlari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarning o'rni sezilarli darajada.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilinib, "mahalla yettiligi" Prezident Farmoni.

3.2017-yil 14-martda qabul qilingan “ Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Prezident qarori.

4. <https://my.gov.uz/oz/service/808>

5. <https://oyina.uz/uz/teahouse/1950>

6. <https://advice.uz/oz/document/2858>

7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/27/mahalla/>